



MERIDIAN
DIAGNOSTIC HOSPITAL

ACTACAMU

Ilmiy jurnal • Scientific journal • Научный журнал



№4.1
(12.1)
maxsus son

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
"CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITY"
xalqaro tibbiyot universiteti
Turkiyaning YUKSAK IXTISOS UNIVERSITETI

"Tibbiyotdagi islohotlar - inson qadri uchun"

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari
2025 yil 18 - 19 noyabr Farg'ona



www.camuf.uz



ISSN: 2181-4155

ActaCAMU

Scientific journal

№ 4.1 (12.1) 2025

maxsus son



MERIDIAN
DIAGNOSTIC HOSPITAL

ActaCAMU

Ilmiy jurnal №4.1 (12.1) 2025 maxsus son

Bosh muharrir

Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich – CAMU rektori


Bosh muharrir o'rinbosari

PhD, dotsent Normatova Shahnoza Anvarovna (Farg'ona)

Tahrir hay'ati:

DSc, dotsent Botirov Murodjon Turg'unboyevich (Farg'ona)
t.f.d., prof. Raimjanov Abdulaziz Abduxafizovich (Farg'ona)
t.f.d., prof. Imamov Otabek Sunnatovich (Toshkent)
t.f.d., prof. Madazimov Madamin Mo'minovich (Andijon)
t.f.d., prof. Ermatov Nizom Jumaqulovich (Toshkent)
t.f.d., prof. Ro'ziyev Sherzod Ibodullayevich (Toshkent)
t.f.d., prof. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich (Urganch)
t.f.d., prof. Salaxidinov Kamoliddin Zuxriddinovich (Andijon)
t.f.d., prof. Мухиддин Нуриддин Давлатали (Tojikiston)
f.f.d., prof. Saidov Abdumanon Sattorovich (Tojikiston)
t.f.d., prof. Privalova Irina Leonidovna (Rossiya)
t.f.d., prof. Suxinin Andrey Anatolyevich (Rossiya)
t.f.d., prof. Muslumov Gurbanxan Feteli oglu (Ozarbayjon)
t.f.d., prof. Sholan Rashad Farxadovich (Ozarbayjon)
t.f.d., prof. Magalov Islam Sharifovich (Ozarbayjon)
t.f.d., prof. Rayimov G'ayrat Nabiyeovich (Farg'ona)
PhD, prof. Mir Axmad Manzur (Hindiston)
t.f.d., prof. Shatmanov Suynali Toktonazarovich (Qirg'iziston)
t.f.d., prof. Gilyarevskiy Sergey Rudjerovich (Rossiya)
t.f.d., dotsent Pyagay Grigoriy Borisovich (Toshkent)
t.f.d., dotsent Babadjanov Oybek Abdujabborovich (Toshkent)
t.f.n., dotsent Shadmanova Lola Abdujalilovna (Toshkent)
t.f.n., Sultanov Gafurdjan Nematbekovich (Toshkent)
dotsent Abdumanonov Ahrorjon Adxamjonovich (Farg'ona)

Acta CAMU jurnali OAK rayosatining
2024 yil 27 sentyabrdagi 361/6-son
qarori bilan tibbiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



Qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi. Jurnalda yoritilgan materiallarning haqoniyligi uchun maqolaning mualliflari va reklama beruvchilar mas'uldir.

"ActaCAMU" jurnali tahririyati,
tel: +998953090770,
Maqolalar elektron pochta orqali qabul
qilinadi, e-mail: acta_camu@mail.ru
Web sayt: www.camuf.uz

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligidan 2022 y. 29 yanvardagi
№057214 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan

Bosishga ruhsat etildi 20.10.2024 y.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma 00007,
"O'zbek nusxa markazlari" MChJ
bosmaxonasi. Manzil: Farg'ona
shahar, B.Marg'iloniy ko'chasi, 1A uy.

54.	<i>Irgashev M.B., Aliyev D.S.</i> - Ishemik insultdan keyingi aritmiyalarni prognozlashda kardial biomarkerlarning qo'llanilishi: O'zbekiston populyatsiyasi bo'yicha tahlil	1099
55.	<i>Isaqova N.R., Rustamova M.</i> - Anatomiya va klinik epidemiologiya bogliqligi	1101
56.	<i>Israilova G.M.</i> - O'zbekiston Respublikada go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishda HACCP tizimidan foydalanish	1105
57.	<i>Ismoilova O.L., Mo'yidinova G.A.</i> - Homilador ayollarning jinsiy a'zolari infeksiyalari	1108
58.	<i>Isroilov F.I., Mamathalilova F.F.</i> - Kognitiv funksiyasini oshiruvchi oziq ovqat mahsulotlari	1112
59.	<i>Йузгумалиева Х.М.</i> - Роль фторсодержащих средств в снижении распространенности кариеса в группах риска	1113
60.	<i>Кутайбеков С.М., Худайбергенов А.С.</i> - Оценка пищевой и биологической ценности некоторых национальных продуктов и блюд Каракалпакстана	1117
61.	<i>Кутайбеков С.М., Худайбергенов А.С.</i> - Роль зерновых продуктов в питании сельского и городского населения Узбекистана	1121
62.	<i>Komilov Z.M.</i> - Talabalarda tana massasi indeksi (BMI) ko'rsatkichlari: milliy tahlil va jahon statistikasi bilan solishtirish	1122
63.	<i>Komilova D.A.</i> - Daun sindromi tarqalishi va uning oldini olish chora tadbirlari	1126
64.	<i>Kurbanova G.N., Berdiyeva X.U.</i> - Bolalarda nutqiy rivojlanishdan orqada qolishni erta tashxislash va profilaktikasi	1128
65.	<i>Khudoyberdieva D.I., Obidov D.Q.</i> - The role of the measles virus in the development of infectious encephalitis	1130
66.	<i>Мадгазиев О.Р.</i> - Прогностические факторы послеоперационных осложнений у больных с камнями желчного пузыря	1134
67.	<i>Мирзаев Ш.М.</i> - Ретроспективное исследование клинических исходов при различных формах панариция	1137
68.	<i>Маматкулова М.Т., Холматов М., Тохиров И.</i> - Беременность во время пандемии коронавирусной инфекции Covid – 19. Риски и влияния на будущего ребенка	1140
69.	<i>Микаилов У.С., Мамедов З.М.</i> - Роль судебно - медицинской экспертизы в профилактике травматизма, связанного с употреблением алкоголя	1144
70.	<i>Микаилов У.С., Мамедов З.М.</i> - Особенности судебно - медицинской экспертизы травм головы и шеи, возникающих при дорожно - транспортных происшествиях	1145
71.	<i>Madraximova Z.M., G'ayratova S.Sh.</i> - Yuqumli kasalliklar shifoxonasida ishlovchi tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlarini gigiyenik baholash	1146
72.	<i>Madaminov F.A.</i> - Clinical case of successful treatment of Covid - 19– associated invasive pulmonary aspergillosis	1148
73.	<i>Mamasaidova M.M., Aliyev D.S.</i> - Umurtqa pog'onasi disk churaasi operatsiyasidan keyingi immun tizim o'zgarishlari va nevrologik oqibatlari	1150
74.	<i>Mamatxanova G.M., Nurmuhammadova N.I.</i> - Aholi o'rtasida gelmintozlar bilan kasalanishni kamaytirishda patronaj hamshirasining o'rni	1153
75.	<i>Mamatxanova G.M., Saminova Sh.A.</i> - Sog'liqni saqlash muassasalarida tibbiy hisobot hujjatlarini avtomatlashtirishni takomillashtirish	1156
76.	<i>Mamatova Sh.I.</i> - Neftdan olinadigan koks va uning xususiyatlari	1159
77.	<i>Mamanazirov J.Q.</i> - Erta yoshdagi bolalarda virusli infeksiyalardan keyingi yurak zararlanishida aritmiyalarni oldini olish	1160
78.	<i>Maraimov U.</i> - Semizlikni profilaktikasida parhez va jismoniy tarbiyaning gigiyenik roli	1161

NEFTDAN OLINADIGAN KOKS VA UNING XUSUSIYATLARI

Dolzarbli. So`nggi yillarda yoqilg`i-energetika tarmog`ini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi va alternativ energiya manbalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Neftni qayta ishlash texnologiyasi energiya resurslarini boyitish, yonilg`i samaradorligini oshirish va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim rol o`ynaydi. Neftni qayta ishlash jarayonida og`ir fraksiyalarning termik parchalanishi natijasida neft koksi deb ataluvchi qattiq uglerodli modda hosil bo`ladi. Bu mahsulot o`zining yuqori uglerod miqdori, yuqori haroratda yonish qobiliyati va barqarorligi bilan ajralib turadi.

Maqsad. Tadqiqotning maqsadi - neftdan olinadigan koksning fizik-kimyoviy xususiyatlarini, ishlab chiqarish usullarini, sanoatdagi qo`llanilishini hamda uning ekologik va sog`liqqa ta`sirini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. 1. Neftni qayta ishlashning tarixiy rivojlanishi. Neftni qayta ishlash usuli qadim zamonlardan ma`lum bo`lib, dastlab tibbiyotda dori-darmon tayyorlash uchun qo`llanilgan. Qadimgi yunon tabibi Kassiy Feliks va Abu Ali ibn Sino bu borada ilk tajribalar o`tkazgan. XVIII asrda Boku va Mozdok atrofida birinchi neftni haydash zavodlari tashkil etilgan. 1861-yilda qurilgan birinchi neftni qayta ishlash zavodi oddiy atmosfera distillash orqali kerosin ishlab chiqargan.

**2. Neft koksining hosil bo`lish jarayoni.** Neft koksi - neftni qayta ishlashning og`ir qoldiqlarini termokreking yoki piroliz jarayonlarida (500 - 550°C haroratda) qayta ishlash natijasida hosil bo`ladigan qattiq uglerodli mahsulotdir. Bu jarayonlarda uglevodorodlarning parchalanishi sodir bo`ladi va natijada qattiq uglerodli massa - neft koks hosil bo`ladi.

Asosiy texnologik usullar: kechiktirilgan kokslash – uzoq muddatli termik parchalanish jarayoni; suyuqlik qatlamida kokslash – yuqori haroratli tezkor piroliz usuli.

3. Kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari. Neft koksi tarkibining 90 - 98 % qismini uglerod tashkil etadi. Shuningdek, unda oltingugurt (0,5–7 %), azot, kislorod, vanadiy va nikel kabi elementlar mavjud.

Asosiy ko`rsatkichlar: uglerod miqdori – 90–98%, zichligi – 0,8–1,1 g/sm³

Yonish harorati – 800–1000°C

Tuzilishi – amorf yoki grafitga o`xshash shaklda.

4. Neft koksining turlari. Yangi (xom) koks – tozalanmagan, uchuvchan moddalar ko`p. Kalsinlangan koks – 1200–1400°C da qayta ishlanadi, elektrotexnikada ishlatiladi. Metallurgik koks – alyuminiy, kremniy, temir ishlab chiqarishda ishlatiladi.

**5. Qo`llanilish sohalari.** Metallurgiyada: alyuminiy va ferrosplavlar ishlab chiqarish uchun anod sifatida. Energetikada: yuqori yonish quvvati sababli yoqilg`i sifatida. Kimyo sanoatida: elektrodlar va uglerodli mahsulotlar tayyorlashda. Qurilishda: sement va g`isht ishlab chiqarishda issiqlik manbai sifatida.

6. Ekologik va gigiyenik jihatlar. Neft koksining yuqori oltingugurtli turlari yonishida SO₂, NO_x va boshqa zararli gazlar hosil bo`ladi. Bu moddalar atmosferani ifloslantirib, inson salomatligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Ishlab chiqarish va saqlash jarayonlarida koks changi nafas olish tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois ishlab chiqarish joylarida ventilyatsiya, chang ushlovchi filtrlar va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish gigiyenik zaruratdir.

Xulosa. Neftdan olinadigan koks - yuqori uglerodli, energiya zichligi katta bo`lgan qimmatli xomashyo bo`lib, metallurgiya va energetika sohalorida keng qo`llaniladi. Shu bilan birga, uning ishlab chiqarish jarayonida ekologik xavf va gigiyenik muammolar yuzaga keladi. Texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, oltingugurtli kamaytirish texnologiyalarini joriy etish hamda ishlab chiqarish joylarida sog`lom mehnat sharoitlarini yaratish muhim ilmiy va amaliy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A.A. *Neft kimyosi va qayta ishlash texnologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Musaev Sh.Sh. *Sanoat ekologiyasi asoslari*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
3. ASTM International. *Petroleum Coke Analysis Standards*. – USA, 2019.
4. World Petroleum Council. *Petroleum Coke and Its Industrial Uses*. – London, 2022.
5. WHO Environmental Health Report. *Sulfur Emissions and Health Effects*. – Geneva, 2021.

Mamanazirov J.Q.
Central Asian Medical University

ERTA YOSHDAGI BOLALARDA VIRUSLI INFEKSIYALARDAN KEYINGI YURAK ZARARLANISHIDA ARITMIYALARNI OLDINI OLISH

Dolzarbli. So'nggi yillarda pediatriya amaliyotida virusli infeksiyalardan keyingi yurak zararlanishi (postvirusli miokardit) holatlari tez-tez uchramoqda. Ayniqsa gripp, paragripp, adenovirus, enterovirus, Covid-19 va koksaki viruslarining nafaqat nafas tizimini, balki yurak mushaklarini ham zararlashi holatlari juda ko'p uchramoqda. Dunyo statistik ma'lumotlariga ko'ra, o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI)dan keyin bolalarda miokardit rivojlanish chastotasi 5–15% gacha yetadi. Miokarditning asosiy xavfli oqibatlaridan biri– yurak ritmi buzilishlaridir. Aritmiyalar bolaning umumiy rivojlanishini orqaga surishi, jismoniy faolligini chegaralashi va hatto hayot uchun xavf tug'dirishi mumkin (qorinchalar taxikardiyasi, fibrilyatsiya va AV qamallar). Shu bois erta yoshdagi bolalarda ushbu kasallikni oldindan aniqlash va profilaktik chora-tadbirlar ko'rish dolzarb muammo hisoblanadi.

Material va usullar. Tadqiqotga 2022-2024 yillarda kuzatilgan 102 nafar virusli infeksiyadan keyingi yurak zararlanishi tashxisi qo'yilgan bolalar jalb etildi. Shulardan 57 nafari o'g'il, 45 nafari qiz bola bo'ldi. Bolalar asosiy guruh (52 nafar) va nazorat guruhi (50 nafar)ga bo'lindi. Tekshiruv uchun quyidagi usullar muhim hisoblanadi:

Elektrokardiografiya (EKG) – barcha bolalarda muntazam ravishda 3 oylik interval bilan;

Sutkalik Holter-monitoring – 28 nafar bolada;

Exokardiografiya – yurak mushak qisqaruvchanligi va o'ng-chap bo'lmachalar funksiyasini baholash uchun;

Qon tahlillari – yurak fermentlari (KFK, LDG), virusli markerlar, yurak markerlarini tekshirish (Troponin, CK-MB);

Tadqiqot natijalar. Virusli infeksiyadan keyingi birinchi 3 oyda aritmiyalar 41 nafar (40,2%) bolada qayd etildi. Eng ko'p uchraganlari: sinus taxikardiya (23%), ekstrasistoliya (11%), o'tkir PQ intervali o'zgarishlari (6%). Profilaktik davolash va kuzatuvdan o'tgan bolalarda aritmiyalar chastotasi 2,7 baravar kamaydi. Davolashda antioksidant terapiya, metabolik preparatlar (karnitin, koenzim Q10) dan foydalanildi, yurak mushagini himoyalovchi vositalar va jismoniy yuklamani cheklash bo'yicha tavsiyalar yuqori ahamiyatga ega bo'ldi.

Profilaktik choralar sifatida quyidagilar asosiy o'rinda turdi:

1. Virusli infeksiyalarni erta va to'liq davolash;

2. Immun tizimini mustahkamlash (vitamin D, sink, probiotiklar);

3. Miokarditda yurak yuklamasini cheklash (kam jismoniy faoliyat 4–6 hafta);

4. Beta-blokatorlar va antiaritmik vositalar (zarurat bo'lsa);

5. Yuqori xavf guruhidagi bolalarni (oldingi miokardit, oilaviy aritmiyalar) muntazam EKG nazoratiga olish.

6. Antioksidant va metabolik terapiya, kardioprotektiv vositalar aritmiyalarni oldini olishda samarali bo'lib chiqdi.

7. Yengil simptomlarda ham (tez charchash, yurak urishining kuchayishi) kardiolog ko'rigi tavsiya etiladi.